TOSHKENT SHAHRI YUNUSOBOD TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 10-dekabr | 294-14-206-Q/24 | Yunusobod tuman hokimligi

Yunusobod tumanida ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2025-yil uchun band qilib qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 20-oktabrdagi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘RQ-642-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 15-oktabrdagi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-641-sonli Qonunining 43-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 6-apreldagi “Aholini bandligini oshirish hamda mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-616-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Nizomiga, O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi (AV *ro‘yhat raqami № 3163-son, 31.05.2019-y.*) buyrug‘iga muvofiq Yunusobod tumanida istiqomat qiluvchi ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun 2025-yilga mo‘ljallangan band qilinishi kerak bo‘lgan ish o‘rinlari sonini va ularga qo‘yiladigan talablarini belgilash bo‘yicha tuman maxsus komissiyasining 2024-yil 14-noyabrdagi 11-sonli bayonini hamda Yunusobod tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limining 2024-yil 24-oktabrdagi 26/10-01/10/1951-sonli xatini inobatga olib,

Q A R O R Q I L A M A N :

1. Yunusobod tumanida ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun tumandagi 91 ta tashkilotlarda aholining quyidagi toifalari uchun jami 305 ta ish o‘rinlari 1-ilovaga muvofiq band qilib qo‘yilsin:

O‘n to‘rt yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun – bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlari bo‘yicha vazifalarni uyg‘unlashtirish imkonini beradigan, o‘zgaruvchan ish jadvaliga ega bo‘lganlar uchun 16,7 foiz (51 kishi);

Umumiy o‘rta maxsus, kasb-xunar ta’limi muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun – ularning kasb bo‘yicha tayyorgarligiga muvofiq bo‘lganlar uchun 55,7 foiz (170 kishi);

Safarbarlik chaqiriq zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun – ularning kasb bo‘yicha tayyorgarligiga muvofiq bo‘lganlar uchun 1,3 foiz (4 kishi);

Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun – mehnat sharoitlari bo‘yicha attestatsiyadan o‘tkazilgan hamda xodimga ish jarayonlarini to‘sqinliksiz bajarish imkonini (sog‘lig‘ining ahvoli va mehnat faoliyatiga nisbatan belgilangan zid ko‘rsatkichlar hisobga olingan holda) beradiganlar uchun 7,9 foiz (24 kishi);

Pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun – maxsus malakani talab qilmaydiganlar uchun 2,6 foiz (8 kishi);

Jazoni ijro etish muassasalaridan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun – ularning kasb bo‘yicha tayyorgarlik hisobga olingan holdagi ish o‘rinlari, muayyan kasb-hunarga, malakaga ega bo‘lmagan shaxslar uchun – maxsus malakani talab qilmaydiganlar uchun 15,4 foiz (47 kishi);

Odam savdosidan jabrlanganlar uchun 0,3 foiz (1 kishi).

2. Yunusobod tumanida ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2025-yil uchun band qilib qo‘yish lozim bo‘lgan tashkilotlar ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ish o‘rinlarini band qiluvchi tashkilotlar rahbarlariga:

ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ish bilan ta’minlash uchun 2024-yil yakunlanishidan 10 kun oldin band qilingan ish joylari umumiy miqdorining kamida 25 foizi uchun, 2025-yilning 10-yanvaridan kechikmay ish joylarining qolgan qismi 75 foizini barpo etish *(ajratish yoki band qilib qo‘yish)* to‘g‘risidagi, ya’ni har bir toifa bo‘yicha ish o‘rinlari band qilib qo‘yiladigan kasblar

va lavozimlar, mutaxassisliklar kesimidagi ma’lumotlarni va qaror bo‘yicha chiqarilgan buyruq nusxalarini tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga taqdim etilsin.

4. Yunusobod tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i (Sh.Ibragimova):

Korxona va tashkilotlar rahbarlari tomonidan mazkur qarorning to‘liq bajarilishi yuzasidan qat’iy nazorat o‘rnatilsin;

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash haqida”gi (AV *ro‘yhat raqami № 3163-son, 31.05.2019 y*) buyrug‘iga asosan “Ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam sondan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga-har bir hodim uchun 12 oy davomida har oyda eng kam oylik ish haqining 2 baravari miqdorida haq to‘lash” to‘g‘risidagi norma ish o‘rnini band qiluvchi tashkilotlarga to‘liq yetkazilsin.

Xaq to‘lanadigan jamoat ishlariga yuborilgan va ish bilan ta’minlangan fuqarolar belgilangan tartibda hisobga olinsin.

5. Tuman hokimining matbuot kotibi – axborot siyosati masalalari bo‘yicha maslahatchisi (M.Darxanov):

ushbu qaror tuman hokimligining rasmiy sahifasi va ijtimoiy tarmoqlarida yoritilishi ta’minlansin.

6. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

7. Yunusobod tumani hokimining 2023-yil 27-noyabrdagi “Yunusobod tumanida ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2024-yil uchun band qilib qo‘yish to‘g‘risida”gi 275-14-206-Q/23-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

8. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilishni tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.To‘laganov zimmasiga yuklatilsin.

Yunusobod tuman hokimi



B.A.Abduvaliyev

Yunusobod tuman hokimining
2024-yil 10-dekabrdagi
294-14-206-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Yunusobod tumani uchun ijtimoiy muhofazaga muhtoj va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish, ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish bo‘yicha 2025-yil
REJASI:

T/r	Tashkilot nomi	Tashkilot STIR raqami	Shtat jadvaliga muvofiq ishchi xodimlar soni	Berilgan kvotalar soni	14 yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar	Umumiy o‘rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta`lim olgan bitiruvchilari	Safarbarlik chaqiriq zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar	Nogiron shaxslar	Pensiya oldi shaxslar	Jazoni ijro etish muassasalaridan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari	Odam savdosidan jabrlangan
1	"240-SONLI UMUMIY O‘RTA TA'LIM MAKTABI"	203552595	116	3	1	1			1		

2	"246-SONLI UMUMIY O‘RTA TA'LIM MAKTABI"	204784615	138	3	1	2					
3	"43-SONLI UMUMIY O‘RTA TA'LIM MAKTABI"	300440995	96	3	1	1			1		
4	"72-SONLI UMUMIY O‘RTA TA'LIM MAKTABI"	306640236	52	1		1					
5	Kiyim textl MCHJ	308933810	42	3	2			1			
6	"SHIFO NUR KO‘P TARMOQLI TIBBIY MARKAZI" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	206921309	124	3		3					

7	"58-SONLI UMUMIY O‘RTA TA'LIM MAKTABI"	300441091	72	2		2					
8	"O‘ZBEKTELEKOM" AJ	203366731	1114	5		4		1			
9	"ALSKOM" AJ	201941144	78	4		4					
10	"ELSUN-SHAROB" MChJ	203025862	114	3		2				1	
11	YANGI ZAMON BINO MCHJ	304424670	201	4		3				1	

12	"O'ZEKSPOMARKAZ" AJ	201121745	282	4		3		1			
13	Oʻzbekiston Davlat Filarmoniyasi	305648763	847	4		4					
14	OʻZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY KOMMUNIKATSIYALAR UNIVERSITETI	305585344	171	4		3		1			
15	TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI AKADEMIK LITSEYI	202726877	62	3		3					

16	55-SON OILAVIY POLIKLINIKA	204763980	132	3	1	2					
17	53-SON OILAVIY POLIKLINIKA	203424785	90	3	1	2					
18	"UZBAT A.O." AJ QK	200987017	245	4		3	1				
19	"RADIOALOQA, RADIOESHITTIRISH VA TELEVIDENIE MARKAZI" DUK	200625403	88	4		3		1			

20	"O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI HUZURIDAGI O‘ZBEKISTON DAVLAT SIMFONIK ORKESTRI"	308514184	170	3		2			1		
21	M.Ulug‘bek nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab	305464660	58	2	1	1					
22	"117-SONLI UMUMIY O‘RTA TA'LIM MAKTABI"	300442938	33	3	1	2					
23	"220-SONLI UMUMIY O‘RTA TA'LIM MAKTABI"	300441298	145	4	2	2					

24	"105-SONLI UMUMIY O‘RTA TA'LIM MAKTABI"	300442906	51	1		1					
25	"122-SONLI UMUMIY O‘RTA TA'LIM MAKTABI"	300442960	96	2	1	1					
26	"12-SONLI UMUMIY O‘RTA TA'LIM MAKTABI"	300440798	70	1		1					
27	"17-LINGVISTIK MAKTABI"	300440821	113	3	1	2					

28	"354-SONLI UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	310049881	47	2		2					
29	"235-SONLI UMUMIY O‘RTA TA'LIM MAKTABI"	300443019	87	2		2					
30	"250-SONLI UMUMIY O‘RTA TA'LIM MAKTABI"	204089695	111	2		2					
31	"258-SONLI UMUMIY O‘RTA TA'LIM MAKTABI"	300443169	117	2	2						

32	BOKS BO‘YICHA BAHODIR JALOLOV SPORT MAHORATI MAKTABI	309642040	62	2		2					
33	"302-SONLI UMUMIY O‘RTA TA'LIM MAKTABI"	300443303	120	2	1	1					
34	"70-SONLI UMUMIY O‘RTA TA'LIM MAKTABI"	300441281	74	2	1	1					
35	"97-SONLI UMUMIY O‘RTA TA'LIM MAKTABI"	300442874	125	2	1	1					

36	"98-SONLI UMUMIY O‘RTA TA'LIM MAKTABI"	300442881	104	2	1	1					
37	26-SONLI BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABI	205319597	88	2		2					
38	"239-SONLI AYRIM FANLARI CHUQUR O‘QITILADIGAN SINFLARI MAVJUD UMUMIY O‘RTA TA'LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	302811792	65	2		2					
39	424-SONLI MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI	204998349	45	2	2						

40	499-SONLI MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI	203625979	39	1	1						
41	511-SONLI MAXSUS MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASASI	205668512	43	2	1	1					
42	51-O‘RTA UMUM TA'LIM MAKTABI	204795450	92	2		2					
43	"TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI" DAVLAT MUASSASASI	200936435	597	3		2		1			

44	"TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY" MChJ	307787179	57	2		2					
45	TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI	201059323	1106	8	1	6		1			
46	2-MARKAZIY POLIKLINIKASI	201123172	145	3	1	1		1			
47	56-SON OILAVIY POLIKLINIKA	206960506	143	2	1	1					

48	54-SON OILAVIY POLIKLINIKA	204746542	165	2	1	1					
49	50-SON OILAVIY POLIKLINIKA	204752575	92	2	1	1					
50	49-SON OILAVIY POLIKLINIKA	204763973	111	2	1	1					
51	4-SONLI SILGA QARSHI DISPANSER	203805944	64	1		1					

52	2-SON BOLALAR STOMOTOLOGIYA POLILINIKASI	203363919	93	2	1	1					
53	SHAHAR 1-SON BOLALAR KLINIK SHIFOXONASI	203148772	772	6	2	2		1	1		
54	SHAHAR 7-SON KLINIK SHIFOXONASI	201123054	535	6	1	4			1		
55	SHAHAR O‘SMIRLAR DISPANSERI	203467828	176	3		3					

56	TUMANLARARO 3-SON TERI-TANOSIL KASALLIKLARI DISPANSERI	203714392	119	2	1	1					
57	YUNUSOBOD TUMANI TIBBIYOT BIRLASHMASI-MARKAZIY KO‘P TARMOQLI POLIKLINIKA	201122879	575	5	2	2		1			
58	"CHINOBOD SANATORIYASI" AJ	201221881	349	4	3			1			
59	"TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI KLINIKASI"	202136639	962	5	1	3		1			

60	"TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI"	201122783	940	5		4		1			
61	"YUNUSOBOD TUMANI DAVLAT SANITARIYA EPIDEMIOLOGIYA NAZORAT MARKAZI"	201123655	98	2	1						1
62	RESPUBLIKA PERINATAL MARKAZI	203858482	572	5		5					
63	"RESPUBLIKA TEZ TIBBIY YORDAM MARKAZI TOSHKENT SHAHAR FILIALI" DAVLAT MUASSASASI	309967768	475	8	1	5			2		

64	RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN TERAPIYA VA TIBBIY REABILITATSIYA ILMIY-AMALIY TIBBIYOT MARKAZI	201037707	637	4	1	1		1	1		
65	"IPAK YOʻLI-TURIZM INVEST" MChJ	204135417	167	3	1	1		1			
66	"OʻZBEKISTON SANOAT-QURILISH BANK" AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI	200833707	421	3		2		1			
67	"HAYOT BANK" AJ	310331793	224	3		2		1			

68	"KAPITALBANK" ATB	207127843	872	3		2		1			
69	O'ZBEKISTON TARIXI DAVLAT MUZEYI	200836314	108	2		1		1			
70	TEMURIYLAR TARIXI DAVLAT MUZEYI	201777499	59	1		1					
71	INTERFORUM UK	306523333	76	1		1					

72	INTERHOTEL MChJ	306533130	158	5		4	1				
73	YUNUSOBOD-MAXSUSTRANS	200903001	138	3						3	
74	"8-AVTOBUS SAROYI" MChJ	201059347	855	15						15	
75	"GROSS INSURANCE" MChJ	207135501	316	3		2		1			

76	"KOMMUNAL LOYIHA ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI" DAVLAT MUASSASASI	201059118	150	1				1			
77	"MARKAZIY AVARIYA DISPETCHERLIGI XIZMATI KORXONASI" DM	201123078	440	7						7	
78	"MUSAFFO OBI HAYOT" MChJ	300472766	320	6		1	1			4	
79	"YUNUSOBOD TUMANI OBODONLASHTIRISH BOSHQARMASI" DM	201123806	535	12						12	

80	O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI AKADEMIK F.N.RUSANOV NOMIDAGI TOSHKENT BOTANIKA BOG‘I	303545996	101	2						2	
81	TOSHKENT HAYVONOT BOG‘I DM	201156360	272	4	1			1		2	
82	"UNIVERSAL MOBILE SYSTEMS" MChJ	303020732	949	8		7		1			
83	64-OILAVIY POLIKLINIKA	207316133	114	3	1	2					

84	RO‘ZMETOV Z.M. MChJ	301205289	302	6	2	3	1				
85	"88-SONLI UMUMIY O‘RTA TA'LIM MUASSASASI" DAVLAT MUASSASASI	306699580	45	1		1					
86	O‘ZMILLIY BANKI MARKAZIY AMALIYOT BANK XIZMATLAR MARKAZI	200836354	71	1		1					
87	"POYTAXT QURILISH VA XIZMAT" MChJ	302248979	315	4	1	3					

88	"ALISHER NAVOIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY KUTUBXONASI" DAVLAT MUASSASASI	201122450	193	5		4		1			
89	"MUKARRAMA TURG‘UNBOYEVA NOMIDAGI 24-SON MADANIYAT MARKAZI" DAVLAT MUASSASASI	201058919	65	2	1	1					
90	YUNUSOBOD TUMANI XALQ TA'LIMI BO‘LIMI	201123212	76	2	1	1					
91	"Magnit srednaya Aziya" MCHJ	309167892	418	6		6					

	Jami:	91	22562	305	51	170	4	24	8	47	1